

ODAMLARNING TABIIY TASVIRI (NODIR NORMATOV IJODI MISOLIDA)

Rushana Zaripova

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va

adabiyoti universiteti

tayanch doktoranti

Dunyoda eng o'tkir va insonga nisbatan eng keskin yozuvchi bu - Shekspir. O'tkirlik, keskinlikda hech kim uning oldiga tusholgan, undan o'zib ketolgan emas. Shu bois keskinlikning in'ikosi bo'lgan barcha qahramonlari - Lir deysizmi, Otello, Hamlet, Yago, Makbet, Richard deysizmi, hammasi va hatto go'rkov, soqchilargacha, insoniyat tasavvurida badiiy-hayotiy timsol - matritsa qahramonlar xuddi qalam-nayza bilan chizilmaganday, balki bolta bilan oytoshdan yo'nilganday taassurot qoldiradiki, zamon-zamonlar o'tsa ham, hech xira tortmay, ich-ichidan nurlanib turadi va boz ustiga, ziyosi yanada kuchayib boradi.

Kamtarin adibimiz, jurnalistimiz, ulug' rassom Ro'zi Choriyev haqida go'zal bir hujjatli biografik roman yozgan san'atshunos Nodir Normatovni Vilyam Shekspirga qiyoslamoqchi emasmiz. Ammo, Shekspirdagi ehtiroslarning jo'shqinligi, serma'noligi va bularning bari juda o'tkir bolta bilan yo'nilganligi, ochiqligi va tabiiyligidan allanima xususiyat Shukur Xolmirzayevga qanday o'tgan bo'lsa (xoh, ongli va xoh intiutiv), xuddi shunday Nodir Normatovning qissalari, hikoyalari, esse asarlarida ham shunday ko'zga chalinib turadi. Uning 1981 yildagi ilk "Bisot" qissasi va 1991-yilda nashr etilgan "Barigal" deb nomlangan romanni adib Said Ahmadning nazariga tushdi. Ustoz adibni alqadi. Bu romanda Nodir Normatov prozada yangi xat topishga uringan, unda majoziylik va reallik chatishib ketganday. Tabiat bizning har qandayimizdan ko'ra ochiqroq, har qandayimizdan ko'ra tantiroq, sirliroq, donoroqdir. Nodir Normatov hech shak-shubhasiz bir narsaga erishadi: u tabiiy odamlarni tabiiy qilib tasvirlaydi va inson qismatlari, xarakterlarini toq o'rmonbegining aniq harakat qiladigan boltasi bilan tarashlaydi. Shuning uchun u chizgan xarakterlar, ularni shakllantirgan voqealar, muhit, sharoit manzaralari nihoyatda yombi va qabariq. "Bisot" qissasidagi Qobil lashkar, "Daraxt tagidagi odam"dagi laborant, muallim Esonboy, "Muqaddas baliqlar egasi"dagi zoologiya o'qituvchisi O'tamurod, "Jazo" asaridagi Mayram, "Ismoil tog'a tarozisi"dagi Raimboy va Qudratov, "Yozgi momaqaldiroq"dagi Mamatmirzo, "Kar momo"dagi A'juba kampir - bular va ularning yon-atrofidagi odamlar bari o'ta tabiiy va ochiq, qabariq xarakterli odamlar. Ularning xatolari, olıyanobliklari, fojalari, dramalari ham qabariq. Nodir Normatov ularni zarracha bezab-bejab, chiroyli qilaman deb o'tirmaydi, bunga hatto andak bo'lsin, urinish ham yo'q. U tabiiy hodisalarni tabiiy maqomini topib chizadi. Shu xolos. "Chizish" so'zi Nodir Normatovning badiiy usuliga g'oyatda mos, bu usulni rosmana xarakterlaydi. U batafsil uzoq tasvirdan ko'ra chizishni yaxshi ko'radi, zero, chizishda ham chizish bor - Nodir Normatov xarakter qirralarini kesma punktir bilan

chizadi. Voqealardan voqealar shunday kesma punktirlarda tug'ilib bir-biriga g'uluv bilan ulanib boradi. Bunda tabiiyki, bayonda parokandalik xavfi ham tug'iladi, voqeanning boshi, davomi va oxiriga bog'lanmay qolishi ehtimoldan xoli emas. Ammo yozuvchi qandaydir o'ziga ma'lum hikoya qilish zaxiralarini bizga bilintirmaygina qo'llab, syujet va kompozitsiyada yaxlitlik, butunlikka erishadi. Kesma punktir vositasida hikoya tarzida erishilgan butunlik – Nodir Normatovning yozuvchilik mahorati va badiiy uslubining o'ziga xos, uni boshqalardan ajralib turadigan ko'zga ko'rinarli qirrasidir. Muzrobot dashtlari, Ko'hitang tog'lari, Zarabog', Poshxurd, Vandob kabi tog'lar oraliqlaridagi qadim-qadim qishloqlardagi tabiiy ming yillarcha ustuvor bo'lgan hayot tarzi qanday esa, shunday chatma uslub.

Adib voqealar va qismatlar tugunlarini bir-biriga tabiiy o'ngashtirib, biridan ikkinchisini xuddi ilgirga ilganday tortib chiqarib boradiki, o'quvchida rostakam qiziqish uyg'onadi, u boshini ko'tarmay voqealar, taqdirlar oqimi po'rtanalariga sel oqizgan uloqday sho'ng'ib ketadi.

Qadim Surxonning Ko'hitangi, Budrachi bo'ladi-yu, sir bo'lmaydim? Ijodkorning qahramonlari tabiat quchog'ida yashab, albatta, undan mo'jiza qidiradilar, mo'jizalarga chin yurakdan ishonadilar. Sirli baliqlar, fusunkor moviy yong'oqlar, ko'k toshlar, uch yuz-besh yuz yillik daraxtlar, yuz ming yillik chumolilarning, qushlarning tilga kirishi, odam bilan sehrsoz muloqotlarda koinot va ko'hna hayot jozibalarini ochishga urinishlar - bular ham Nodir Normatovning tabiiy badiiy tilida o'z fusunkor echimi va ohanrabo urg'usiga ega.

Nodir Normatov "Bir kuni chumoli bo'lib...", "Ko'ktoshlar", "Oytosh" kabi fusunkor hikoyalarida g'ayobatga talmeh yo'sinida ishoratlar qilib o'tadiki, o 'quvchi bularni Ko'hitang asrorangiz tabiatining nozik hodisalari kabi o'pkasi to'lib qabul qiladi va ta'sirlanadi.

Nodir Normatov o'z asarlarining voqealari ichida yashab, bolalikdan o'sgan, ularni o'z boshidan kechirgan, ishtirokchi bo'lgan va yuragiga juda chuqur singdirgan. Haqiqatan ham, yozuvchilikning taqdiri - uning bolaligining taqdiridir. Biz bolaligimiz qanday bo'lsa, shunday yozuvchimiz. Yozuvchi o'z bolaligini umrining ohirigacha tasarruf qiladi. Insonning boshidan kechadigan barcha katta-kichik voqealar bolalikning nodir xislatiga egadir. Bolalik voqealari alaloqibat shoir-adibning doimiy ilhom va zavq manbaiga aylanadi. Adib asarlarida biz buni yana bir karra jonli guvohi bo'lamiz.

Shuningdek, hech ajab emasdirkni, bir qarashda odmi va dag'al, mutlaqo yo'nilmagan, randalanmagan bo'lib ko'rindigan rang-barang hodisalar tug'ma nafosatning nafasi tekkanda, mo'jizakorlik maqomiga yetadi va o'ziga rom-u oshufta etadi. Yozuvchi, jurnalist, san'atshunos Nodir Normatovning asarlari shunday xususiyatga ega. Surxoni bilmagan, ko'rmagan odamlar ham bu asarlarni o'qisa, shunday xulosaga keladiki, darhaqiqat, bu o'lkada bebahoh oytosh kabi ich-ichidan nurlanib turadigan odamlar yashaydi.

Nodir Normatov ularga mo'jiza kabi qaraydi, ular haqida oy gardishiga qarab, fol ochganday oybitiklar yozadi.

ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy asar. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1978.
2. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. 2-jild.- Toshkent: Fan, 1979.
3. Adabiyot va zamon. Maqolalar, adabiy o'ylar, suhbatlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
4. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
5. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqqati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2000.
6. N. Normatov, A.Ulug'ov.-// Biz izlayotgan hikmatlar// - O'zbekiston tarixi, adabiyoti va madaniyati// 24-dekabr, 2015-y.
7. N.Normatov. "Bisot". Qissalar, hikoyalari. T.: -"Sharq" 2012.